


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

*60220400 – Arxeologiya bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining*

***MALAKA TALABI***

Toshkent - 2024



## ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

### TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan

### JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| <b>T/r</b> |  | <b>bet</b> |
|------------|--|------------|
| <b>1.</b>  | <b>Umumiy tavsifi .....</b>                                | <b>4</b>   |
| 1.1.       | Qo'llanish sohasi .....                                    | 4          |
| 1.1.1.     | Malaka talabining qo'llanilishi.....                       | 4          |
| 1.1.2.     | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....            | 4          |
| 1.2.       | Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....                        | 4          |
| 1.2.1.     | Kasbiy faoliyatning sohalari.....                          | 4          |
| 1.2.2.     | Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....                     | 4          |
| 1.2.3.     | Kasbiy faoliyatlarning turlari.....                        | 5          |
| 1.2.4.     | Kasbiy vazifalar.....                                      | 5          |
| <b>2.</b>  | <b>Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....</b> | <b>6</b>   |
| <b>3.</b>  | <b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>            | <b>7</b>   |
| <b>4.</b>  | <b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>                  | <b>8</b>   |
|            | <b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>                       | <b>9</b>   |
|            | <b>Kelishuv varag'i .....</b>                              | <b>10</b>  |



## **1. Umumiy tavsifi**

**60220400 – Arxeologiya** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari **60220400 – Arxeologiya** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:**

Fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:**

**60220400 – Arxeologiya** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari;

ijtimoiy faoliyatlar doirasida barcha ishlab chiqarish muassasalari;

o'lkashunoslik, mahalliy va xalqaro sayyohlik (turizm) tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan idora va tashkilotlar;

turizm tashkilotlari, muzeylar tarixiy-arxeologik parklar;



tarixiy - madaniy meros obyektlarini o'rganish, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish masalalari bilan bog'liq muassasalar bo'limlari;

ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tashkilotlar;

ommaviy-axborot muassasalarida, turli tadbirkorlik subyektlarida, nodavlat, notijorat va jamoat tashkilotlarida hamda boshqa muassasalar;

huquq-tartibot organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari.

60220400 - Arxeologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim yo'nalishi muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ma'naviy – ma'rifiy faoliyat.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar.**

60220400 – Arxeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

arxeologiya fanlariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatda:**



fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish; ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish; nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish; ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarini rejalashtirish;

nodavlat va notijorat tashkilotlarda, xususiy tadbirkorlik subyektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menedjer sifatida faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, ilmiy madaniyatni shakllantirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;



axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

Inson evolyusiyasi va old tarix, arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish, raqamli arxeologiya, O'rta Osiyo arxeologiyasi, jahon arxeologiyasi fanlarini o'rganish bilan arxeologiya bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi;

bilimlarni yo'naltirishda muhim hisoblangan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliyotdagi qobiliyat va yangiliklarni shakllantirish;

arxeologiya ta'lim sohasi yo'nalishidagi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;

umumkasbiy fanlar o'zlashtirishni ta'minlash, arxeologiya fani sohalari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish va qayta ishlash metodlaridan zaruriy bilimga ega bo'lish;

arxeologiya ta'lim yo'nalishida olingan ma'lumot va natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi;

arxeologiya ta'lim sohasidagi talabalarining kasbiy faoliyatiga muvofiq butun jahon va mamlakatimizda sohadagi mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va sohani rivojlantirish istiqbollari haqida tassavur hosil qilishi;

arxeologik manbalardan unumli foydalanish, ulardan arxeologik tadqiqotlarda foydalana olish bo'yicha muhim bilimlar olishni ta'minlash;

arxeologiya ta'lim sohasidagi talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi;

o'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari;

ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar; ta'lim jarayonida motivatsiya;

ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari; umumiy va xususiy metodlar; ta'lim va aqliy taraqqiyot;

tarbiya metodlari va formalari; bo'lg'usi arxeolog shaxsi sifatлари; arxeologik qobiliyat: nazariya va amaliyot haqida bilim berishi borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malaka amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:



## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r.  | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari          | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o'tiladigan semestr |
|---|------------------------|---|-------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 1.00  |                        | <b>Majburiy fanlar</b>  | <b>4920</b>                         | <b>164</b>     |                         |
| 1.01  | O'YT1104               | O'zbekistonning eng yangi tarixi                                | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.02  | FAL1304                | Falsafa   | 120                                 | 4              | 3                       |
| 1.03  | O'RT1104               | O'zbek (rus) tili   | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.04  | XT1204                 | Xorijiy til   | 120                                 | 4              | 2                       |
| 1.05  | DIN1204                | Dinshunoslik  | 120                                 | 4              | 2                       |
| 1.06  | JMS1104                | Jismoniy madaniyat va sport                                     | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.07  | GA1104                 | Geoarxeologiya  | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.08  | AK1102                 | Arxeologiyaga kirish  | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.09  | OT1104                 | O'rta Osiyoning ornamenti va tasviriy san'ati                   | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.10  | IT1112                 | Inson evolyutsiyasi va old tarix                                | 360                                 | 12             | 1,2                     |
| 1.11  | LA1206                 | Landshaft arxeologiyasi   | 180                                 | 6              | 2                       |
| 1.12  | AG1210                 | Arxeologiyada geografik axborot tizimlari                       | 300                                 | 10             | 2,3                     |
| 1.13  | AD1209                 | Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish | 270                                 | 9              | 2,3                     |
| 1.14  | ET1306                 | Etnoarxeologiya   | 180                                 | 6              | 3                       |
| 1.15  | UD1308                 | O'zbekiston davlatchiligi tarixi                                | 240                                 | 8              | 3,4                     |
| 1.16  | JA1321                 | Jahon arxeologiyasi   | 630                                 | 21             | 3,4,5,6                 |
| 1.17  | RA1404                 | Raqamli arxeologiya   | 120                                 | 4              | 4                       |
| 1.18  | NE1406                 | Numizmatika va epigrafika                                       | 180                                 | 6              | 4                       |
| 1.19  | OA1422                 | O'rta Osiyo arxeologiyasi                                       | 660                                 | 22             | 4,5,6,7                 |
| 1.20  | MY1506                 | O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari                          | 180                                 | 6              | 5                       |
| 1.21  | OU1606                 | O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi         | 180                                 | 6              | 6                       |
| 1.22  | TR1706                 | Tarixiy o'lkashunoslik  | 180                                 | 6              | 7                       |
| 1.23  | AT1706                 | Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish                         | 180                                 | 6              | 7                       |
| 2.00  |                        | <b>Tanlov fanlar</b>  | <b>1200</b>                         | <b>40</b>      |                         |
| 2.00  |                        | <i>Tanlov fanlar</i>  | 1200                                | 40             | 4,5,6,7                 |
| <b>Kvalifikatsiya arxeolog, tadqiqotchi</b> |                        |   |                                     |                |                         |
|   |                        | <b>Jami</b>   | <b>6120</b>                         | <b>204</b>     |                         |
|   |                        | <b>Malaka amaliyot</b>  | <b>840</b>                          | <b>28</b>      | <b>2,4,6,8</b>          |
|   |                        | <b>BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)</b>                      | <b>240</b>                          | <b>8</b>       | <b>8</b>                |
|   |                        | <b>Jami</b>   | <b>1080</b>                         | <b>36</b>      |                         |
|   |                        | <b>HAMMASI</b>  | <b>7200</b>                         | <b>240</b>     |                         |

\* OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirishi mumkin.

\*\* Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma'lum bir semestrda to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to'liq 6-semestrda qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat "Malaka amaliyoti" qatorida ko'rsatiladi).



**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

Malaka talablari, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, ko'nikma, o'quv davri, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, loyihalash, ilmiy tadqiqot, Inson evolyutsiyasi va old tarix, Geoarxeologiya, Arxeologiyaga kirish, Raqamli arxeologiya, Arxeologiyada geografik axborot tizimlari, Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish, O'rta Osiyo arxeologiyasi, jahon arxeologiyasi, landshaft arxeologiyasi, Numizmatika va epigrafika, Tarixiy o'lkashunoslik, O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari, O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi, Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish, bakalavriatning o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, ta'lim jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQUILGAN:

O'zbekiston Milliy universiteti  
Rektor  I. Madjidov

2024-yil « 19 » 06



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor  M. Boltabayev

2024-yil «    »

M.O'.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq  
davlat universiteti

Rektor  A.M. Reymov

2024 yil «    »

M.O'

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi Milliy arxeologiya markazi

Direktor  F. Maqsudov

2024 yil «    »

M.O'.

Urganch davlat universiteti

Rektor  B.I. Abdullayev

2024 yil «    »



**Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti**  
**60220400 – Arxeologiya bakalavr ta`lim yo`nalishi bo`yicha malaka talablari va**  
**o`quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta`lim muassasalari va asosiy**  
**kadrlar iste`molchilari o`rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ \_ ” \_\_\_\_\_ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O`zRFA Milliy arxeologiya markazi direktori F.Maqsudov, Urganch davlat universiteti rektori B.I.Abdullayev, O`zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birgalikda O`zMuda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavr ta`lim yo`nalishi malaka talablari va o`quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60220400 – Arxeologiya bakalavr ta`lim yo`nalishining malaka talablari hamda o`quv rejasini ishlab chiqilishida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma`lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta`lim muassasalarida ta`lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O`zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta`limning me`yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to`g`risida”gi 259-sonli hamda O`zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O`z DSt 3557:2021 “Oliy ta`limning davlat ta`lim standarti. Oliy ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O`zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta`lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o`quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste`molchilari tomonidan qo`yilgan talablar ham inobatga olingan.

Bakalavr ta`lim yo`nalishi bo`yicha malaka talablari o`quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo`lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o`quv rejani o`rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi**

**Milliy arxeologiya markazi direktori**

**F. Maqsudov**

**Urganch davlat universiteti rektori**

**B.Abdullayev**

**O`zbekiston Milliy universiteti rektori**

**I.Madjidov**



**O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan 60220400 – Arxeologiya bakalavr ta’lim yo‘nalishining bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlarni tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60220400 – Arxeologiya bakalavr ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasiga O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

60220400 – Arxeologiya bakalavr ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

60220400 – Arxeologiya bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, magistrnlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini



kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60220400 – Arxeologiya bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq  
davlat universiteti**



**A.M. Reymov**

**O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan  
60220400 – Arxeologiya bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TAQRIZ**

O'zbekiston Milliy universitetida 60220400 – Arxeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60220400 – Arxeologiya bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, magistrning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Umuman olganda, 60220400 – Arxeologiya bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni o'qitish uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Urganch davlat universiteti  
rektori**



**B.Abdullayev**



**ЎзМУ томонидан ишлаб чиқилган ўқув режанинг хорижий мамлакатлар етакчи ТОП-300  
олий ўқув юртлари ўқув режалари билан қиёсий таҳлили  
АРХЕОЛОГИЯ бакалавриат таълим йўналиши**

| №                            | ЎзМУ  |  | Шу фаннинг хорижий ОТМларда номланиши ва ажратилган соат  |  |   |  |   |  |
|------------------------------|---|--|---|--|---|--|---|--|
|                              | Фан номи  | Умумий кредит<br>(1 кредит<br>30 соат) | Россия<br>(МГУ)   |  | АҚШ<br>(University of Stanford)   |  | АҚШ Ёки Осиё мамлакатлари<br>(Berkeley Kaliforniya universiteti).         |  |
|                              |   |  | Фан номи  | Умумий кредит<br>(1 кредит<br>30 соат) | Фан номи  | Умумий кредит<br>(1 кредит<br>30 соат) | Фан номи  | Умумий кредит<br>(1 кредит<br>30 соат) |
| <b>Мутахассислик фанлари</b> |   |  |   |  |   |  |   |  |
| GEAB105                      | Геоархеология   | 6                                      | Геоархеология   | 108                                    | The Archaeology of Climate  | 4                                      | Gearcheology  | 4                                      |
| ARKB104                      | Археологияга кириш  | 6                                      | Введение в Археологию   | 108                                    | Introduction to Archaeology   | 10                                     | Introduction to Archaeology   | 5<br>4                                 |
| OTSB104                      | Ўрта Осиёнинг орнаменти ва тасвирий санъати                         | 4                                      | Источниковедение<br>изобразительных источников<br>История средневековой культуры  | 108                                    | 1. Archaeological imagination<br>2. Introduction to Greek Art and Archeology                | 4                                      | Special Topics in Archeology  | 4                                      |
| IETB112                      | Инсон эволюцияси ва олд тарих                                       | 12                                     | История первобытного общества   | 88                                     | Environmental anthropology  | 4                                      | Human evolution and primate behavior                                      | 10                                     |
| LTAB106                      | Ландшафт археологияси   | 6                                      |   | 74                                     | Landscapes of Inequality: The Southwestern United   | 4                                      | Landscape Archaeology   | 6                                      |
| AGTB208                      | Археология, антропология ва этнологияда географик ахборот тизимлари | 10                                     | Современные информационные технологии в археологии<br>Базы данных и информационные системы в исторических исследованиях     | 217                                    | Archaeological Geographic Information Systems   | 4                                      | Archaeological data analysis  | 4                                      |
| ADTB208                      | Археологик дала тадқиқот усуллари ва топилмаларга ишлов бериш       | 9                                      | Полевая археология<br>Археологически й практикum (реставрация керамики)<br>Археологически й практикum (реставрация металла) | 330                                    | Archaeological Methods<br>The Archaeological Imagination<br>Investigating Ancient Materials | 4                                      | Archaeological Methods Field Course                                       | 6                                      |
| ETAB206                      | Этноархеология  | 6                                      | Основы этнологии<br>Проблемы общей этнографии   | 72                                     | Experimental Archaeology  | 4                                      | History and theory of ethnographic cinema                                 | 4                                      |
| JAAB221                      | Жаҳон археологияси  | 21                                     | Археология каменного века,<br>Археология неолита и бронзового века,<br>Археология железного века,<br>Античная археология    | 880                                    | Incas, Spaniards, and Africans: Archaeology of the Kingdom of Peru                          | 4                                      | World Archaeology   | 20                                     |
| RARB206                      | Рақамли археология  | 4                                      | Современные методы в исторических исследованиях<br>Методы и технологии 3D моделирования в исторических исследованиях        | 108                                    | Archeology of the present: material cultures of our time                                    |  | Data Analysis and Computational Methods                                   | 4                                      |
| NVEB206                      | Нумизматика ва эпиграфика   | 6                                      | Введение в вспомогательные исторические дисциплины  | 112                                    | Special Topics in Archeology  |  | Special Topics in Archeology  | 4                                      |
| UOAB222                      | Ўрта Осиё археологияси  | 22                                     | Славяно-русская археологи   | 440                                    | Latin America's Past: Archeology and Cultural Heritage                                      | 20                                     | 1. Archeology of America: Archeology of North America<br>2. Archeology of | 5<br>5<br>5                            |

|             |  |   |   |           |  |   |   |        |
|-------------|--|---|---|-----------|--|---|---|--------|
|             |  |   |   |           | Historical archeology of Latin America   |   | America: Archeology of Central America<br>3. Archeology of America: the world of the ancient Mayans     |        |
| УМУВ30<br>6 | Ўзбекистоннинг меъморий ёдгорликлари               | 6 | Архитектурная визуализация и виртуальная репрезентация объектов историко-культурного наследия | 72        | Muwekma Community Engaged Learning, Cultural Heritage and Native Plants Garden Field Project | 5 | Introduction to Heritage Conservation   |        |
| УУУВ30<br>6 | Ўрта Осиёнинг қадимги ва ўрта асрлар урбанизацияси | 6 | 1. Древнейшие государства<br>2. Средней Азии<br>Античные города и государств                  | 144<br>90 | Heritage Development in the Global South   | 5 | 1. Archaeology and Ancient Civilization.<br>2. Ancient Civilisations of the Mediterranean and Near East | 6<br>5 |
| TRUB406     | Тарихий ўлкашунослик                               | 4 |   | 144       | American material culture  | 5 | Historical Landscape and Archaeological Heritage<br>Historical Archaeology: American Material Culture   | 5<br>4 |
| АТМВ40<br>6 | Археологик топилмаларни музейлаштириш              | 6 | Этнографическое музееведение  | 72        | Introduction to Museum Practice<br>Introduction to Museum Practice                           | 5 | 1. Introduction to museum methods<br>2. Curation and design of museum exhibitions                       | 5<br>4 |